

DOI: 10.5281/zenodo.15659072

Link: <https://zenodo.org/records/15659072>

MINTAQADA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALASI

BO'YICHA CHORA-TADBIRLARI

Usubjonova Mohichexra Odilmirza qizi

University of business and science

K.IQ-2401 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqada kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, soliq yengilliklari va tadbirkorlikni rag'batlantirish strategiyalari haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba va zamonaviy innovatsion yondashuvlar, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan usullar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq yengilliklari, innovatsiya, investitsiya, davlat dasturlari, biznes muhit.

Kirish.

Bugungi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti ko'p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga bog'liq. Ayniqsa, mintaqaviy darajada kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali nafaqat aholi bandligini ta'minlash, balki hududlarning iqtisodiy salohiyatini to'liq ishga solish mumkin bo'lmoqda.

Kichik biznesning mintaqaviy rivojlanishdagi o'rni kichik biznes iqtisodiyotning eng moslashuvchan va tez harakatlanuvchi segmenti hisoblanadi. U mahalliy resurslardan samarali foydalanish, aholi bandligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda innovatsiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli har bir hududda kichik biznesni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda[1].

Mintaqada kichik biznesning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar quyidagilar hisoblanadi: moliyaviy resurslarning yetishmasligi; kredit olishdagi byurokratik to'siqlar; bilim va tajriba yetishmasligi; infratuzilmaning rivojlanmaganligi; ichki va tashqi bozorlarga chiqishdagi qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Buni oldini olish ishlarini amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar shaxri.

Kichik biznesni rivojlantirish masalasi, ayniqsa mintaqaviy kontekstdagi yondashuvlar ko'plab iqtisodchi olimlar, siyosatshunoslar va amaliy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Quyida ushbu sohada eng muhim deb topilgan adabiy manbalar yoritiladi.

B.X. Xayitov, A.R. Mamajonov, Z.Sh. Xodjayev va boshqa iqtisodchilar O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional asoslari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va huquqiy sharoitlari bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar.

Jumladan, B.X. Xayitov o'z asarlarida kichik biznesni mintaqaviy iqtisodiyotning tayanchi sifatida ko'rib, uning hududiy farqlarga qarab qo'llab-quvvatlash usullarini tavsiya qiladi.

A.R. Mamajonov esa "Hududiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosatining o'rni" nomli ilmiy maqolasida hukumatning faol aralashuvi zarurligini asoslab bergen.

Bu hujjatlar kichik biznes uchun soliq imtiyozlari, yer ajratish, kredit olishda yengilliklar, eksport faoliyatini uchun subsidiya mexanizmlarini joriy etgan.

Philip Kotler va Armstrong G. asarlarida kichik biznesni rivojlantirishda marketing strategiyalarining o'rni keng yoritilgan. Mahsulotni to'g'ri joylashtirish va mintaqaviy bozorda raqobatdosh narx siyosatini yuritish orqali kichik korxonalar muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Adabiyotlar sharhidan ko'rindan kichik biznesni mintaqaviy rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Bu boradagi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda kompleks yondashuv – qonunchilik, infratuzilma, moliyaviy vositalar, kadrlar tayyorlash va marketingni uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Kelgusida mahalliy sharoitga mos modellar va amaliy dasturlar ishlab chiqilishi bu boradagi ishlarni samaraliroq qilishi mumkin.

Taxlil va natijalar.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishi kichik biznesni rivojlanishiga yaratilayotgan sharoitlar va berilayotgan imtiyozlardir. Natijada ular soni keskin oshib ketdi. Bu esa ishsizlar sonini kamayishiga samarali xissasini qo'shamoqlar. Shu bois mintaqada kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha hozirgi kunda quyidagi asosiy chora-tadbirlar amalgalashmoqda:

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish: Imtiyozli kreditlar ajratilmoqda (past foizli va uzoq muddatli); Davlat grantlari va subsidiyalar orqali startap va yangi loyihalar rag'batlantirilmoqda; "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" orqali yoshlar va ayollar tadbirkorligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish: Sanoat zonalari, biznes-inkubatorlar va servis markazlari tashkil etilmoqda; Er va bino ajratish jarayoni soddalashtirilmoqda; Hududiy "ishlab chiqarish klasterlari" yaratilyapti[2].

Raqamlashtirish va elektron xizmatlar joriy etilishi: Tadbirkorlar uchun onlayn ro'yxatdan o'tish, litsenziya olish va hisobot topshirish imkoniyati yaratilgan; "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı" (my.gov.uz) orqali ko'plab xizmatlar raqamli shaklga o'tkazilmoqda.

Tadbirkorlikni o'rgatish va maslahat berish tizimi: Tadbirkorlar uchun seminarlar, treninglar va malaka oshirish kurslari o'tkazilmoqda; Tadbirkorlik markazlari tomonidan yuridik, moliyaviy va soliq masalalari bo'yicha maslahatlar berilmoqda.

Tashqi bozorga chiqishni qo'llab-quvvatlash: Eksport qiluvchi kichik korxonalarga bojxona va logistika sohasida imtiyozlar berilmoqda; Tadbirkorlar xalqaro ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtiroy etishga jalb qilinmoqda; "Made in Uzbekistan" brendi ostida mahsulotlarni targ'ib qilish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Soliq va huquqiy yengilliklar: Yangi ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar uchun soliq imtiyozlari joriy etilmoqda; Tekshiruvlar soni kamaytirilgan, "riskga asoslangan nazorat tizimi" yo'lga qo'yilgan; Litsenziya va ruxsatnomalar olish tartiblari soddalashtirilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonning barcha mintaqalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud statistika va hududiy tahlillar shuni ko'rsatadiki[3]:

- Toshkent shahri va viloyati, Farg'onasi vodiysi hududlarida kichik biznesning o'sish sur'atlari nisbatan yuqori;
- Chekka hududlar (masalan, Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Jizzax viloyatlari)da esa kichik biznes subyektlari soni va faoliyatining barqarorligi pastroq;
- Kichik korxonalarning aksariyati savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga to'plangan, ishlab chiqarish va innovatsion yo'nalishlar kamroq ulushni tashkil qiladi.

Kichik biznesni mintaqaviy rivojlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish. Imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar ajratish orqali yangi tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish zarur.

Ikkinchidan. Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish. Biznes-inkubatorlar, sanoat zonalari, logistika markazlari va savdo yo'llarini rivojlantirish kichik korxonalar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan. Kadrlar tayyorlash va bilimlarni oshirish. Tadbirkorlar uchun o'quv kurslari, seminar va treninglar tashkil etish orqali ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish kerak.

To'rtinhdan. Raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish. Kichik biznes subyektlarini raqamli texnologiyalar bilan tanishtirish, elektron savdo platformalariga ulanish imkoniyatlarini yaratish zamонавија raqobatga bardoshli bo'lish imkonini beradi.

Beshinchidan. Bozorlarga kirishni osonlashtirish. Mahalliy mahsulotlar uchun ichki va tashqi bozorlarni izlash, ko'rgazma va yarmarkalarda ishtiroy etishni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega[5].

Oltinchidan. Huquqiy muhitni soddalashtirish. Kichik biznes uchun soliq va litsenziya tizimini soddalashtirish, ortiqcha nazoratlarni kamaytirish orqali erkin faoliyat yuritishiga sharoit yaratish zarur.

Mintaqada kichik biznesni rivojlantirishdagi asosiy omillar va ularni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar

№	Omil nomi	Mavjud muammo yoki holat	Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar
1	Moliyaviy resurslar	Kredit olishda garov talabi, yuqori foiz stavkalari	Mikrokreditlar, kafillik fondlari, subsidiyalangan kreditlar
2	Yer va infratuzilma	Yer ajratishdagi byurokratik kechikishlar, infratuzilmaning yetishmasligi	Sanoat zonalarini kengaytirish, yer ajratishni soddalashtirish
3	Tadbirkorlik bilimi	Aholining biznes yuritish bo'yicha bilim darajasi past	Kasb-hunar markazlari, biznes-treninglar, onlayn kurslar

4	Huquqiy tartibga solish	Ruxsatnomalar olishda ortiqcha hujjatbozlik	“Yagona darcha” tizimini kengaytirish, litsenziya olishni soddalashtirish
5	Bozor imkoniyatlari	Mahsulotni sotish uchun doimiy bozor mavjud emas	Mahalliy yarmarkalar, elektron savdo platformalari, kooperatsiya
6	Innovatsiya va raqamlashtirish	Raqamli texnologiyalarni qo'llash past	Internet platformalar, elektron hisobot, IT xizmatlar subsidiyasi
7	Tashqi savdo imkoniyatlari	Eksport qilish uchun yetarli huquqiy va logistik baza yo'q	Eksport agentliklari, bojxona yengilliklari, logistika markazlari

Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.

Ushbu jadvalda kichik biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar tizimlashtirilib, har biriga mos tarzda amaliy chora-tadbirlar taklif qilingan. Quyidagi asosiy jihatlar ajralib turadi: Moliyaviy qo'llab-quvvatlash – kichik tadbirkorlik uchun boshlang'ich kapital eng katta to'siq bo'lib qolmoqda. Bu borada kredit foizlarini subsidiyalash va kafillik tizimini kengaytirish muhim.

Infratuzilma – sanoat zonalari, elektr, suv, internet kabi xizmatlarning yetishmasligi ishlab chiqarish hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammoni hal qilish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yo'lga qo'yish mumkin.

Tadbirkorlik ko'nikmalari – ta'lim muassasalarida amaliy biznes darslarini tashkil etish, yoshlar va ayollarni biznes yuritishga o'rgatish kichik biznes salohiyatini oshiradi.

Bozor va eksport – ichki va tashqi bozorga chiqishdagi to'siqlarni bartaraf etish kichik biznes uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Jadval orqali mintaqada kichik biznesni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari aniq ko'rindi: moliyaviy, tashkiliy, infratuzilmaviy va axborot-innovatsion chora-tadbirlarni bирgalikda amalga oshirish zarur. Har bir mintaqada ushbu omillar alohida tahlil qilinib, joyiga mos strategiyalar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytish lozim, kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha tizimli va kompleks yondashuv mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi. Davlat va mahalliy hokimiyatlar, xususiy sektor hamda jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali ushbu sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish va yangi imkoniyatlar yaratish mumkin.

O'tkazilgan tahlil va mavjud adabiyotlar sharhi asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- kichik biznes mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi bo'lib, u aholi bandligi, daromad manbalarining ko'payishi, innovatsiyalar joriy etilishi va xizmatlar sektorining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

- biroq kichik biznes subyektlarining rivojlanishida bir qator tizimli muammolar mavjud.

- davlat tomonidan qabul qilingan islohotlar va chora-tadbirlar dasturlari.

Mintaqalarda kichik biznesni yanada samarali rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish
- yer ajratish va infratuzilmani yaxshilash

- tadbirkorlik ta'limini kuchaytirish
 - bozor infratuzilmasini rivojlantirish
 - raqamlashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash
 - mahalliy hokimiyat va davlat organlari ishtirokini oshirish.
- Ushbu taklif va tavsiyalar mamlaktimiz istiqbolini belgilab beradi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: PQ-3777сон (2018-yil 7-iyun) – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” – Unda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash alohida yo‘nalish sifatida belgilangan.
3. Tursunov B.O., Karimov N."Tadbirkorlik asoslari" – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”,2021. (Tadbirkorlik faoliyati, kichik biznes shakllari, davlat yordami haqida tushunchalar berilgan)
4. Akramova M.N. "Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari" – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
5. Islomov B.I., Xo‘jayev Sh.K."Biznes-reja tuzish va investitsiyalarni jalb qilish" – 2022.(Mintaqaviy biznes-rejalar shartnoma, biznes inkubatorlar haqida ma’lumotlar)
6. Qurbonov S.M. – “Tadbirkorlik muhitini yaxshilashda infratuzilma roli” // “Moliyaviy tahlil va boshqaruv” ilmiy-amaliy jurnali, 2022-yil, №4.
7. www.lex.uz – Qonunlar va prezident qarorlari to‘liq matnlari.
8. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, kichik biznes statistikasi.
10. www.chamber.uz – Savdo-sanoat palatasi: tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash faoliyati haqida ma’lumotlar.